Materiallar to'plami · Conference Proceedings
"ZAMONAVIY TADQIQOTLAR VA BARQAROR RIVOJLANISH" respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi
04 August 2026
UDK 94
IJTIMOIY-GUMANITAR FANLAR

SADRIDDIN AYNIY ASARLARIGA FALSAFIY-IJTIMOIY JIHATDAN NAZAR

Komila Payzullayevna Islamova*
Samarqand davlat chet tillar instituti mustaqil tadqiqotchisi
✉ islamovakomila640@gmail.com

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada Sadriddin Ayniy asarlariga falsafiy-ijtimoiy jihatdan nazar tashlangan bo'lib, Sadriddin Ayniyning jamiyatimiz ijtimoiy hayoti borasida faoliyati va qarashlarini uning boy qadimiy tarixiy manbalarimizga tayangan asarlaridan tortib davrning dolzarb mavzulari yoritilgan ilmiy asarlari haqida mulohazalar yoritilgan.

Kalit so'zlar

"Buxoro axbori", "Ko'rsunlar va Eshitsunlar", "Amir Temur binolarindan. Bibixonim xarobasi ila musohaba, "Samarqand shahri", Muqanna.

DOI: 10.5281/zenodo.22053896

KIRISH

Sadriddin Ayniyning jamiyatimiz ijtimoiy hayoti borasida faoliyati va qarashlarini uning boy qadimiy tarixiy manbalarimizga tayangan asarlaridan tortib davrning dolzarb mavzulari yoritilgan ilmiy asarlari muhim manba va ahamiyat kasb etadi. Jumladan, S.Ayniy Buxoro Xalq Sovet Respublikasi (BXSR)ning doimiy matbuot organi bo'lgan "Buxoro axbori" gazetasida e'lon qilgan tarixiy- badiiy maqolalari ham muhim ahamiyatga egadir. Buxoro Xalq Sovet Respublikasi (BXSR) hukumatining o'zbek tilidagi yagona, doimiy matbuotorgani bo'lgan "Buxoro axbori" (keyinchalik "Ozod Buxoro") gazetasida S.Ayniyning 1923 yilda "Ko'rsunlar va Eshitsunlar", "Sho'rolar hukumati muomalasi", "Buxoro jadidlari va inqilobchilariga murojaat" nomidagi maqolalarini e'lon qilgan.

S.Ayniyning "Ko'rsunlar va eshitsunlar" nomli maqolasi bilan tanishar ekanmiz, ushbu maqolani yozilishiga Boku (Ozarbayjon) gazetalaridan birida Buxoro haqida yozilgan salbiy bir xabar sababchi bo'lgan. Maqolada 1922-1923 yillarda BXSR hukumatining Buxoro tarixiy obidalarini ta'mirlash sohasidagi sa'y-harakatlari bayon qilinadi. Muallifning ma'lumoticha, hukumat qarori bilan Minorai Kalonning 1920 yil senyatbrdagi bolsheviklar to'ntarishidan keyin shikastlangan joylarini tuzatish uchun ustalar va mardikorlar ikki yil ta'mirlash ishlarini olib borishgan. Yarim vayrona holatida kelgan boshqa tarixiy obidalarni qayta tiklash uchun maxsus reja tuzilib, ko'p miqdorda qurilish ashyolari: g'isht, ohak, ganch va yog'och keltirilgan. Jumladan, 1923 yilda: "Varaja mikrobi (ko'zga ko'rinmay turgan zararli qurt) uyasi bo'lg'on Devonbegi hovuzi atrofidagi iflos do'konlar ko'tarilib, toshdan yangi imorat tiklana boshlang'on, ilgaridan yaxshi havo va shamoli tushib turg'on joylar ochilib, salomatlik uchun muvofiq ravishda imorat qiling'on"[4] - deb yozadi, S.Ayniy.

BXSR hukumatining tarixiy obidalar va osori-atiqalarni asrab kelajak avlodlarga yetkazish, Buxoro shahrini obodonlashtirib salomatlik markazlari hamda yangidan zamonaviy binolar qurish bilan bog'liq xayrli ishlar ma'rifatparvar adibni to'lqinlantirgan. 1921 yilning bahorida amir qo'shni Afg'oniston hududiga o'tib ketgan. Uning ortida Buxoroda 100 dan ortiq qavm-qarindoshlari qolib ketadi. Amir Sayid Olimxonning 1918 yil "Kolesov voqeasi"dan keyin jadidlar va ularning oilasiga nisbatan shafqatsiz munosabati, jabr va zulmi

S.Ayniyning ikkinchi maqolasida bayon qilingan. U F.Xo‘jayev hukumati amirning oilasiga hovli-joy, ozuqa va kiyim-kechak berganligi ularga yaxshi muomala qilganligi, 52 nafarini amirning oldiga (Afg‘oniston)ga yuborganligini yozib qoldirgan.

Olim Buxoro Respublikasining F.Xo‘jayev boshchiligidagi yosh hukumatga qilingan tuhmatlarning asossizligini isboti sifatida ular qilayotgan savob ishlarni “ko‘zi bor ko‘rsin, qulog‘i bor eshitsun” [4] - deya maqolaga nuqta qo‘yadi.

“Buxoro jadidlari va inqilobchilariga murojaat” maqolasi esa, hajm jihatidan oldingi ikki maqoladan katta bo‘lib, muallif unda eng dolzarb masalani ko‘tarib chiqqan. Ya’ni, unda Buxoro jadidlarining kurashlar tarixi va faoliyatini kelajak avlodlarga yetkazish masalasi haqida bahs yuritiladi. “Qo‘limizdagi sanalarni (guvohnomalar), rasmlarni, eski maktub va gazetalarni bir yerga yig‘ib qo‘yib, shahid bo‘lg‘an o‘rtoqlarimiz uchun, bir yodgorlik, bir muzey tayyorlamak kerakdur. Ayniqsa, shahid qiling‘on birodarlarning rasmlari va maktublari buyuk hadyalardan hisob qilinadur” [5] - deyilgandi murojaatnomada.

Maqola matnidan ma’lum bo‘ladiki, S.Ayniy Buxoro tarixini kelajak avlodlarga to‘la to‘kisligicha yetkazish uchun amaliy faoliyat ham olib borgan. Buxoroning mahalliy ziyolilaridan biri bo‘lgan Abbos Aliyev (1899-1958 y) bilan uchrashib, bu masaladigi fikr-mulohazalari bilan o‘rtoqlashgan. Buxoro arkidagi o‘zi hibsda saqlangan zindonning obxonasidan “1337 hijriy hamali, Po‘latbek Namangoniy, “Oh zolimlar” deb yozilgan bir dona pishiq g‘ishtni tarixiy dalil sifatida olib chiqqan. Adibning ma’lumoticha, 1919 yilda Po‘latbek ismli namanganlik jadid S.Ayniy hibs qilingan obxonada yotgan. Amir tomonidan o‘limga mahkum qilingandan keyin, u o‘zidan biror bir iz qoldirish maqsadida yuqoridagi yozuvni g‘ishtga bitib qoldirgan. Po‘latbek Namangoniy kabi yuzlab shaxslar hayotini o‘rganish esa tarixchilarning vazifasi ekanligi adib tomonidan alohida ta’kidlangan [5].

O‘sha davrdagi ijtimoiy - ma’rifiy va adabiy jurnallardan bo‘lgan arab imlosida, o‘zbek tilida chiqadigan “Maorif va o‘qitg‘uchi” jurnalida ham S.Ayniy o‘zining tarixiy, ilmiy va adabiy yo‘nalishdagi bir qancha maqolalari bilan ushbu jurnalning sahifalarini boyitgan.

S.Ayniyning Amir Temur va temuriylar davri tarixiga bag‘ishlangan tarixiy tadqiqotlari, ayniqsa, muhim ahamiyatga ega bo‘lib, O‘zbekistonda temurshunoslikka qo‘l urilgan dastlabki ilmiy ishlar deyish mumkin. O‘sha yillarda Samarqand osori atiqalarini o‘rganish dolzarb ahamiyat kasb etgan. S.Ayniy ham o‘zining “Amir Temur binolarindan. Bibixonim xarobasi ila musohaba” [1], “Samarqand shahri”, “Eski osorlar. Chilustun, Ko‘ksaroy, Chinnixona va Ko‘ktosh”, “Tarixiy tasxeh”, shuningdek, “Ulug‘bek rasadxonasi” va “Tarixiy yodgorliklarning buzilib ketilishiga yo‘l qo‘yilmasin” kabi maqolalarida[3] Samarqand shahrining tarixiy-me’moriy yodgorliklariga va topografiyasiga keng to‘xtaladi.

Muallif Amir Temur va temuriylar davrida Samarqandda yuz bergan o‘zgarishlar, obodonchilik ishlari, barpo etilgan me’moriy obidalar, maqbaralar ta’rifiga keng o‘rin ajratgan. Tasvir mazmunidan bu ishlarning barchasi yoki muayyan qismi Amir Temur xizmatlari mahsuli ekanligi, sohibqiron hokimiyat tepasiga kelgunga qadar Samarqand xaroba holga tushib qolganligi, Amir Temur esa shaharning aksar qismini qayta tiklashga jazm etganligi to‘g‘risidagi fikrlarni ilg‘ab olish qiyin emas [7:47]. Shu bilan birga S.Ayniy Amir Temurning shon-shuhratiga hech qanday shubha qilmagan holda, u qurdirgan imoratlarning tarixiy-badiiy jihatlarini ochib bergan. Go‘ri Amir kompleksining tavsifini berayotganda, uning Amir Temur qudratiga mos va muvofiq ekanligini ochiq yozgan.

S.Ayniy “Samarqand shahri” nomli maqolasida, dastlab Samarqand shahrining qadimgi davridan Amir Temur taxtga kelgunga qadar bo‘lgan tarixiga qisqacha to‘xtalib o‘tadi. Uning “Samarqand shahrining birinchi binosi” nomli bo‘limida, Iskandar Zulqarnaynning O‘rta Osiyoga qilgan yurishi davrida Qadimgi Sug‘diyona davlati va uning poytaxti bo‘lgan Maroqandda (Samarqand) shahri tarixi haqida muhim ma’lumotlarni keltiradi. “Hikoya kitoblari Bog‘i shamol tomonda bo‘lgan hozirg‘i “Devori qiyomat” va “Devori Ko‘ndalang”larni ham Iskandarga nisbat berilar. Eski zamonlarda (hozirg‘i Samarqand bino bo‘lgandan burun) Oq va Qora daryolarning oralarida Dobid qishlog‘i o‘rni, “Sug‘d” qavmining markazi bo‘lub, “So‘g‘diyon” deb atalgan bir shaharning borligini rivoyat qilinadi” [7:47].

Olim Amir Temurning bunyodkorlik faoliyatini yuqori baholab uning tomonidan Samarqand, Shahrisabz, Turkistonda qurilgan monumental obidalarning benazirligini, Amir Temurdan keyin musulmon sharqida

bular darajasidagi badiiy mukammal binolar qurilmaganligini alohida ta'kidlaydi. Bibixonim masjidi esa Amir Temur shon-shuhratining cho‘qqisi sifatida e'tirof etiladi [1:3]. "Temurning katta imoratlaridan biri, Xonim me'moriy yodgorligidirkim bugungacha xarobasi ko‘zlarni qamashtiradi, Xonim masjidi 801 hijriyda (1399) boshlanib, 806 hijriyda (1405) bitdi. Bu binoning ichidagi ayvonlari pishiq g‘isht bilan yopilib, marmar toshdan yo‘nilgan 80 ustun ustiga solingan edi" [7:48].

Tarixshunos olim shayboniylar va mang‘itlar davrida ham Samarqandda bunyodkorlik va obodonchilik amalga oshirilganligi to‘g‘risida yozgan: "Shayboniyxon madrasasi deb atalgan madrasa, Shayboniy Marvda o‘ldirilib, 916 (1510) jasadi Samarqandga keltirilib ko‘milgandan keyin, uning qabri ustiga kelini (Muhammad Temur otliq o‘g‘lining xotini) tomonidan solingan. Bu madrasa juda keng bo‘lib, bosqinchilik chog‘larida tamom buzilgan edi. Mang‘itlar davrida amir Shohmurod tomonidan boshqadan imorat qilindi. Shayboniylardan bir nechasining dahmasi bo‘lib, hozir Childuxtaron atalgan Registonning janubidagi mozor o‘rnida juda keng bir madrasa bor edi. Uni shayboniylardan Kuchkinchixon zamonida, uning o‘g‘li Abu Said soldirg‘on edi. Kuchkinchixon, Abu Said (o‘limi 940 hijriy) va bir necha qarindoshlari munda ko‘milgan edi. Hozir u madrasa tamom xorab bo‘lgan, o‘rni hovlilarg‘a qo‘shilib ketgan yolg‘iz o‘rtaliqda ozgina xaroba asari qolib, unda bir necha qabr toshlari to‘plangandir" [7:48-49].

"Samarqandda mang‘itlar davridan qolgan otliq bino yolg‘iz chorsudagi toqdir. Buni Doniyolbiy o‘g‘li Shomurod (1215 hijriy), (1800)da soldirg‘on. Shohizinda mozori darvozasidan kirgach o‘ng qo‘lda kichkina bir madrasa bordirkim, buni amir Haydar inoqlaridan samarqandliq Davlat qushbegi 1228 hijriy (1812)da soldirg‘on. Samarqand arkini ichida 1228 (1812)da amir Haydar bir madrasa soldirgan bo‘lsa ham, undan asar qolmagan. Ruhobodda amir Muzaffar madrasa soldirgan edikim, uning hujralaridan bir qismi bukungacha bordir. Samarqandda, yer tagida ko‘mulib ketgan eski imoratlar, qimmatliq osori-atiqalar juda ko‘pdir.

Shuningdek, adib Amir Temurning suyukli nabarasi bo‘lgan Mirzo Ulug‘bek (1394-1449 y; hukmronlik davri: 1409-1449 y) tomonidan Samarqand va Buxoroda bino qilingan muhtasham binolarni ham sanab o‘tgan. U "Ulug‘bek rasadxonasi" [6] nomli maqolasida o‘z davrida mashhur astronomiya maktabini yaratgan Mirzo Ulug‘bek davridagi ilm-fan taraqqiyoti, uning atrofida buyuk olimlarning faoliyat ko‘rsatganligi, 1424-1428 yillarda qurilgan rasadxona, uning tarixi, ilmiy faoliyati, Amir Temurning munosib davomchisi sifatida ilm-fan ahliga g‘amxo‘rlik qilganligi va boshqalar to‘g‘risida muhim bo‘lgan ma'lumotlarni keltirib o‘tgan.

S.Ayniyning "Eski osorlar. Chil ustun, Ko‘ksaroy, Chinnixona va Ko‘ktosh" [8:7-8] nomli tarixiy tadqiqotida Amir Temur va temuriylar davrida Samarqand shahrining har jihatdan rivojlanganligi, qo‘pgina tarixiy obidalar Chil ustun, Chinnixona, Ko‘ksaroy va Ko‘ktosh kabi o‘z davrining mashhur yodgorliklari qurilganligini aytadi. Amir Temur Samarqand shahrini o‘z davlatining poytaxti etib belgilaganidan keyin Movarounnahr o‘lkasi ijtimoiy, iqtisodiy jihatdan gullab-yashnaganligini e'tirof etib, U "Chinnixona" me'moriy obidasi to‘g‘risida shunday yozgan:

"Xitoy (Chin) o‘lkasiga maxsus kishi yuborilib, ushbu chinnilar keltirilgan va bu imoratga sarf qilingan edi. Shuning uchun ushbu imorat "Chinnixona" deb atalgan edi. Hozirda Chil ustun va Chinnixonadan hech bir asar qolmagandir. Faqat 1914-1915 yillarda tasodif kovlanganda, bu yerlardan katta tosh parchalarining chiqqanligi, bu yerlik kimsalar tomonidan rivoyat qilinmoqdadir. Ko‘ksaroy - bu imorat Samarqandning arkida (o‘rda-hozirgi Tuproq qo‘rg‘on) bo‘lib, Amir Temur tomonidan solingan to‘rt oshyona (to‘rt qavatliq) yuksak bir bino edi. Ko‘ktosh hozirg‘i zamonamizgacha Samarqandning qo‘rg‘onida salomat qolgan katta bir toshdir".

Xullas, Sadriddin Ayniy O‘zbekistonda boshqa tarixchi olimlar qatorida Amir Temur shaxsiga, uning bunyodkorlik va davlatni boshqarish sohasidagi mahoratiga, sohibqironning mamlakatimiz xalqlari oldidagi tarixiy xizmatlarini tilga olib munosib va xolisona baholaydi. Shu bilan birga, temuriylar davrida ilm-fan, me'morchilik yuksak darajada rivojlanganligini ta'kidlab o‘tadi. Tarixchi olim o‘zining bu tarixiy tadqiqotlari bilan temurshunoslik sohasiga o‘z davridayoq munosib hissa qo‘shgandi.

S.Ayniyning muhim bo‘lgan tarixiy tadqiqotlaridan biri "Isyoni Muqanna" [9] ("Muqanna isyoni") asaridir. Ma'lumki, Muqanna qo‘zg‘oloni Vatanimiz tarixidagi eng yirik siyosiy voqealardan biri sifatida hamisha tadqiqotchilar e'tiborida bo‘lib kelgan. Tarixshunos olim XX asrning 40- yillarida oq kiyimlilar va uning rahbari Muqanna haqida asar yozgan dastlabki tadqiqotchilardan biri hisoblanadi.

Asar 1944 yilda yozilgan bo‘lib, 5 bobdan iborat. S.Ayniy mazkur asarini yozishda o‘z davrining mash-

hur muarrixlarining qo‘lyozma asarlaridan foydalangan. Jumladan, Abu Ja’far ibn Jarir Tabariyning “Tarix ar-rasul va-l-muluk” (“Payg‘ambarlar va podshohlar tarixi”) yoki qisqacha “Tarixi Tabariy”, Abubakr Muhammad Ja’far Narshaxiyning “Buxoro tarixi”, Mirxond Xovandshohning “Ravzat us-safo” (“Jannat bog‘i”) va boshqa sharq qo‘lyozma manbalarga murojaat etgan. Muallif asarda ma’lum bir voqea yoxud hodisani sharhlashda, uning ishonchli bo‘lishi, aniq dalillarga suyangan holda mazkur tarixchilarning asarlaridan parchalar keltirish orqali o‘z fikrini bayon etgan.

Shuni ta’kidlash lozimki, S.Ayniy asarda oq kiyimlilar qo‘zg‘olonining kelib chiqish sabablari, Muqannaning tug‘ilishi va vafot etguniga qadar bo‘lgan siyosiy faoliyati, mahalliy xalqqa orasidagi obro‘-e’tibori, qo‘zg‘olon orqali ona Vatanga bo‘lgan milliy iftixor tuyg‘ularining uyg‘onganligini va uning ahamiyati to‘g‘risida yozgan. Tarixchi birinchi navbatda, Muqannani xalq qahramoni sifatida ko‘rsatadi. Ushbu kitob VIII asrning ikkinchi yarmida Turonzaminda xalifalik istibdodiga qarshi ko‘tarilgan “oq kiyimlilar qo‘zg‘oloni” rahnamosi Muqanna faoliyatiga bag‘ishlangan. Asarda muallif ilgarigi tadqiqotlarda mavjud ma’lumotlarni imkon qadar takror bayon etmasdan, birlamchi manbalar asosida yangi fikr- mulohazalar bildirishga harakat qilgan. Shu bilan birga, tarixchi olimning bu kitobi Vatanimiz o‘tmishidagi eng yirik tarixiy voqealiklardan biri manzaralarini to‘la tasavvur etishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1. Ayniy S. Amir Temur binolarindan Bibixonim xarobasi ila musohaba // Bolalar yo‘ldoshi. 1919, № 2, 23 may. - B. 3.
2. Ayniy S. Yashasin sovet Buxorosi // Buxoro axbori. 1920, 9 sentyabr.
3. Ayniy S. Mahmudxo‘ja Behbudiy va rafiqlarining o‘chlari olindi 1923, № 209, 3 oktyabr.
4. Ayniy S. Ko‘rsunlar va eshitsunlar // Buxoro axbori, 1923 yil, № 210, 5 avgust.
5. Ayniy S. Buxoro jadidlari va inqilobchilariga murojaat // Buxoro axbori. 1923, № 214, 21 avgust.
6. Ayniy S. Ulug‘bek rasadxonasi // Lenin yo‘li. 1948, 9 iyul; Uning o‘zi: Tarixiy yodgorliklarning buzilib ketilishiga yo‘l qo‘yilmasin // Qizil O‘zbekiston. 1948, 12 iyun, Lenin yo‘li, 1948, 15 iyul.
7. Ayniy S. Samarqa0nd shahri // Maorif va o‘qitug‘uchi, 1928, № 10. - B. 47 - 50.
8. Ayniy S. Eski osorlar. Chil ustun, Ko‘ksaroy, Chinnixona va Ko‘ktosh // Maorif va o‘qitug‘uchi , 1926, № 7 - 8. 28 - 29.
9. Ayniy S. Isyoni Muqanna. - Dushanbe: Maorif, 1978.